

## TA'LIM TARAQQIYOT GAROVI

Nazarova Saboxat Abdullayevna

*Toshkent viloyati Angren shahar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli 9-sonli alohida ta'lim extiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada taraqqiyotga erishish uchun ta'limga e'tibor qaratish zaruriyati muhokama etiladi. Tarixiy faktorlar hamda istiqbolli rejalar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, kelajak, fan, muhokama, o'qituvchi.*

### KIRISH

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini xayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya - shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish va pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bir so'z bilan aytganda - ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika reserslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimidan qat'iy nazar, o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekan, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalari yig'indisi bo'lgan zarur pedagogik minimumlarni egallagan bo'lishi shart.

Shu bilan bir qatorda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni hayotga qo'llay olish ko'nikma va malakalarini doimiy shakllantirib borishi zarur.

Davlatimiz rahbari o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir deb takidlab o'tgan.

Jahon ta'lim madaniyatining turli-tumanligi kadrlar tayyorlashda umumiy jihat va xususiyatlar bilan birga milliylikni inkor etolmagan. Chunki, ta'lim va tarbiya odamzotga xos xususiyat bo'lib, ta'lim samaradorligi har bir xalqning etnokonfessional o'ziga xosligi va mosligi, vorisiylik tamoyillarida milliy pedagogik tarbiyani hosil qilgan. Natijada, milliy madaniyatga mos bo'lmagan G'arb ta'limining innovatsion texnologiyalaridan nusxa ko'chirish an'anasi ijtimoiy tarbiyada natija bermadi. Bilaks, ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy taxlillari fanlararo umuminsoniy, milliy pedagogik an'ana va qadriyatlarga tayanishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi Sho'rolar tuzumining pedagogikasida shakllanganligidan ijtimoiy-gumanitar fanlarda etnokonfessional ta'lim madaniyati haqida qayg'ursa-da, lekin zamonaviy ta'lim

texnologiyalarining milliyligini yoddan chiqaradi [2]. Natijada, o’zbek millatini G’arbning ilg’or texnologiyalari bilan qurollantirish uchun urinishi kutilgan natijani bermadi.

O’zbek jamiyatida ta’lim sifatini yuksalishi milliy mentalitetdagi o’zaro munosabatlarni ijtimoiy nazorat talablariga moslash, har bir kishi ta’lim yuksalishiga o’z hissasini qo’shish mas’uliyatiga bog’liqdir. Bu hol “och qornim, tinch qulog’im”, “sen menga tegma, men senga” kabi tamoyillardan xalos bo’lishni takozo etadi. Chunki, ijtimoiy ta’lim va tarbiya sohasida sog’lom ilmiy pedagogik muhitni shakllantirish orqali ijodkor va talantli xodimlarni rag’bati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekistonda halqaro nufuzli tashkilotlarning ta’lim sifati yuzasidan monitoringi ochiqlantirilmagan. Shu ma’noda respublikamizda ta’lim sifatiga doir islohotlarni amalga oshirish uchun sifat, ta’lim va tarbiya uchligida ilmiy tadqiqotlarni tashkili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol ta’lim sifati deganda ijtimoiy tarbiya tizimi sifatida milliy-diniy an’ana va qadriyatlar asosida zamonaviy innovatsiyalarni qo’llashni takozo etadi. Inson o’zidagi barcha ta’limiy fazilatlarni oiladan olishi bilan ta’lim sifatining negizi oilaga qurilishi darkor. Demak, hozirgi oilaviy devalvatsiya sharoitida ta’lim sifati hususida gapirish mushkuldir.

Har qanday sifat ob’ektdagi ijtimoiy o’zgarish va yangilanish bilan ijtimoiy tizimni yaxlit maqsadli siyosatni ifodalaydi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda milliylikdan ko’ra “ommaviylik”, “tartibot”dan ko’ra “liberallik”, “mehnatsevarlik”dan ko’ra “boqimandalik” (ayniqsa tayyorxo’rlik) ijtimoiy me’yor va mezonga aylanib borishi ham ta’lim sifatiga ta’sir etmay qolmaydi. Ta’lim tizimining sifatiga bozor iqtisodiyoti sharoitida “to’lov shartnoma” asosida abituriyentlarni o’qishga qabul qilish jiddiy zarar yetkazdi. Chunki, OTM daromad manbaidan mahrum bo’lganidan ko’ra talabchan o’qituvchidan voz kechishni afzal ko’radi. Natijada, mazkur tizimdagagi talaba o’z hoxishi bilan ketmasa, uni “ketkazib bo’lmasligi” budjetdagagi talabani ham o’qishiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Kuzatishlarda talabalar kasbiy yetuklikka emas, balki “diplom” uchun o’qiyotganligi aniqlandi. Bugun “ko’zlaridan o’t chaqnab turgan talabalar” haqidagi hamkasblarimizning yolg’onlari sir bo’lmay qoldi.

## XULOSA VA MUНОZARA

Milliy ta’limni tarbiyadan ajratish, ta’limga urg’u berish yoki unga yetarli darajada e’tibor bermaslik ham mumkin emas. Milliy pedagogika intizom bilan ta’lim sifatini shakllantirib, intizom esa hamisha o’quvchilarning hoxish-irodasining ixtiyoriyligini inkor etadi. Zero, ta’limda odatlantirish texnologiyasi ta’lim talablarini majburiylik tizimini yo’lga qo’yish orqali erishiladi. O’rta asr allomalari ta’limda shogirdlarning uch toifaga bo’lish, birinchisiga imo-ishora yetarli, ikkinchisiga tushuntirish zarur, uchinchisiga tan jazosi orqali ilmiy bilimlarni singdirish metodi haqida bayon etilgan. Ta’limdagagi tan jazosi – ijtimoiy tarbiya muhitini mustahkamlaydigan barcha uchun intizomi vosita. Ta’lim intizomi esa har qanday tizimda yoshlarning tarbiyasidagi muhim ijtimoiy kafolatdir. Uning taqiqi yoki ota-onalarning o’qituvchi ustidan shikoyati davlat miqiyosida sud-huquq, militsiyasiz fuqarolik jamiyatini qurishga intilgan fransuz utopiyasini eslatadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Allayarova S. N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari- oly ta'lim sifati va samaradorligini oshirish omili// Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoe obrazovanie. – 2020. – № 4(89) - B. 10-19.
2. Arapbaeva D. K. Arapbaeva D. K. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari // Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoe obrazovanie. – 2015. – №7. – B. 66 – 72.
3. Arzimatov B.Ta'lim sifatini oshirish masalalari va istiqbolli rejalar// Oriental Art and Culture. –2021. – № 2(4) –B. 545 – 553.
4. Yesenbaeva G.A., Kakenov K.S. Ta'lim sifati: universitet tushunchasi // Amaliy va fundamental tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2015. – 12-8-son. – 1497-1500-betlar.
5. Kaldiboev S.K., Beyshenaliev A.B. Ta'lim sifati tarkibida o'quv jarayonining sifati // Zamonaviy ilm-fan yutuqlari. – 2015 yil.– No 7. – B. 90 – 97.